



BUYRAK TOSH KASALLIGINING RIVOJLANISH OMILLARI

Goyibova Zilola Eshkobulovna

Paxtachi Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salmatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya. Buyrak tosh kasalligi (urolitiaz) siydik-tanosil tizimining eng ko'p uchraydigan kasalliklaridan biri bo'lib, uning rivojlanishida metabolik, infeksiy, irsiy hamda atrof-muhit omillari muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada buyrak tosh kasalligining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar, jumladan, modda almashinuvining buzilishi, noto'g'ri ovqatlanish, suyuqlik yetishmovchiligi, siydik yo'llari infeksiyalari va turmush tarzi bilan bog'liq xavf omillari tahlil qilinadi. Kasallikning oldini olishda etiologik omillarni erta aniqlash va bartaraf etishning ahamiyati yoritib berilgan

Kalit so'zlar: buyrak tosh kasalligi, urolitiaz, rivojlanish omillari, metabolik buzilishlar, siydik yo'llari infeksiyasi, giperkaltsiuriya, profilaktika

Аннотация. Мочекаменная болезнь (уролитиаз) - одно из наиболее распространенных заболеваний мочеполовой системы, в развитии которого важную роль играют метаболические, инфекционные, наследственные и факторы окружающей среды. В данной статье анализируются основные факторы риска развития мочекаменной болезни, включая нарушения обмена веществ, неправильное питание, недостаток жидкости, инфекции мочевыводящих путей и факторы риска, связанные с образом жизни. Раскрыта важность раннего выявления и устранения этиологических факторов в профилактике заболевания.

Ключевые слова: мочекаменная болезнь, уrolитиаз, факторы развития, метаболические нарушения, инфекции мочевыводящих путей, гиперкальциурия, профилактика



Abstract. Kidney stone disease (urolithiasis) is one of the most common diseases of the urinary system, in which metabolic, infectious, hereditary, and environmental factors play a significant role in its development. This article analyzes the main factors contributing to the occurrence of kidney stone disease, including metabolic disorders, improper nutrition, fluid deficiency, urinary tract infections, and lifestyle-related risk factors. The importance of early identification and elimination of etiological factors in disease prevention is highlighted.

Keywords: kidney stone disease, urolithiasis, development factors, metabolic disorders, urinary tract infection, hypercalciuria, prevention

Kirish. Buyrakda toshlar — kishi kasallikning birinchi alomatlari namoyon bo'lishigacha (masalan, bel sohasida og'riqlar yoki buyrak kolikalari) seza olmaydigan patologiya hisoblanadi.

Siydik-tosh kasalligi (urolitiaz) — bu siydik ajratish tizimida, ya'ni buyrakda, siydik pufagida va siydik yo'llarida toshlar (konkrementlar) mavjudligi bilan xarakterlanadigan surunkali, retsidivlanishga moyil bo'lgan modda almashinuvi kasalligidir. Ba'zan urolitiaz va nefrolitiaz terminlari sinonimlar sifatida ishlatiladi, lekin nefrolitiaz deb faqatgina buyrakda toshlar mavjudligini atash mumkin (boshqa siydik ajratish tizimi bo'limlarida emas).

Siydik-tosh kasalligi boshlanishi va rivojlanishining asosiy sababi modda almashinuvi buzilishi bo'lib, bu toshlarni shakllantiruvchi erimaydigan tuzlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Toshlarning soni va ularning joylashishi juda turlicha bo'lishi mumkin. Siydik-tosh kasalligi shifoxonalarning urologik bo'limiga gospitalizatsiya sabablarining 30-40 foizini tashkil etadi.

Yomon suv yoki bir xilda ovqatlanish, kishi yashaydigan mintaqaning iqlim xususiyatlari, masalan, juda issiq iqlim, ma'lum bir dori-darmonlar qabul qilish, siydik tizimining anomaliyalari va siydik yo'li strikturasi, giperparatireoz, A va D vitaminlarining yetishmasligi, siydik ajratish tizimining surunkali yallig'lanish



kasalliklari (pielonefrit, sistit), shuningdek, irsiy omil ham siydik tosh kasalligi rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Asosiy qism. Toshlar shakllanishi sabablari va tarkibiga qarab, bir necha turga bo'linadi:

- kaltsiyli — 70% gacha;
- siydik kislotasili — 12% gacha;
- infektsiyalangan — 15% gacha;
- sistinli — 2-3% gacha.

Kasallik oqibatlari

Toshning joylashgan joyiga qarab, bemorda turli xil belgilar kuzatilishi mumkin, ushbu kasallik uchun asosiy alomatlar quyidagilardan iborat:

- Paroksizmal og'riqlar. Buyrakdagi tosh va siydik pufaginging yuqori qismidagi tosh odatda orqa tarafdan yoki yon tarafdan qovurg'alarining ostidagi og'riq bilan xarakterlanadi. Og'riq kuchli va o'tmas bo'lishi mumkin, intensivligi 20-60 daqiqagacha davriylik bilan o'zgarishi mumkin. Ko'pincha og'riq boshlanishiga jismoniy stress, katta miqdorda suyuqlik ichish yoki siydik haydovchi preparatlarni qabul qilish turtki bo'ladi. Toshning siydik yo'llari bo'ylab harakatlanishi sayin og'riqning joyi o'zgaradi, og'riq beldan qorin, oraliq, sonning ichki qismiga, yorg'oq sohasiga o'tadi. Bu alomatlar tez-tez siydik chiqarishga undashlar bilan to'ldiriladi. Buyrak kolikalarini o'tkir xirurgik kasalliklar bilan adashtirmaslik juda muhimdir, masalan o'tkir appenditsit, o'tkir xoletsistit, o'tkir pankreatit, ichak o'tkazmasligi, churra qisilishi, bachadondan tashqari homiladorlik, oshqozon yarasi perforatsiyasi, o'n ikki barmoqli ichak yarasi. Shuning uchun bu belgilar mavjud bo'lganda darhol shifokor bilan maslahatlashish va kasallikning sababini imkon qadar tezroq aniqlash kerak.

- Siydikka qon aralashganligi. Siydik-tosh kasalligida siydik bilan qon kelishidan oldin buyrak kolikasi kuzatiladi. Cho'kmali loyqa yoki badbo'y hidli siydik ham toshning siljishini ko'rsatishi mumkin.



• Umumiy ahvolning yomonlashishi, ayniqsa, ko'ngil aynishi, qayt qilish.
Bu alomatlar ayniqsa yallig'lanishning boshlanishi — pielonefrit uchun xosdir.

• Qum yoki tosh chiqishi — tosh chiqqanda varaja va yuqori isitma paydo bo'lishi mumkin.

Buyrak tosh kasalligi — bu siydik tizimida mineral va organik moddalar kristallari to'planib, toshlar hosil bo'lishi bilan kechadigan kasallikdir. Kasallik rivojlanishiga bir nechta o'zaro bog'liq **omillar** sabab bo'ladi.

1. Metabolik (modda almashinuvi) omillar

- **Kalsiy almashinuvining buzilishi** (giperkaltsiuriya)
- **Siydik kislotasining ko'payishi** (giperurikemiya)
- **Oksalatlar miqdorining oshishi**
- **Sitrat yetishmovchiligi** (gipotsitraturiya)

2. Oziqlanish bilan bog'liq omillar

- Kam suyuqlik ichish (siydikning quyuqlashishi)
- Tuzni ortiqcha iste'mol qilish
- Hayvon oqsillariga boy ovqatlar
- Oksalatga boy mahsulotlar (ismaloq, shokolad, choy)

3. Siydik yo'llari infeksiyalari

- Ureaza ishlab chiqaruvchi bakteriyalar (masalan, *Proteus* spp.)
- Infeksion (struvit) toshlar hosil bo'lishi

4. Irsiy va genetik omillar

- Oilaviy moyillik
- Tug'ma metabolik kasalliklar (masalan, sistinuriya)

5. Anatomik va funksional omillar

- Siydik chiqish yo'llarining torayishi
- Buyrak tuzilishidagi anomaliyalar
- Siydikning turg'unligi (staz)

6. Gormonal omillar



- Paratireoid bez faoliyatining oshishi (giperparatireoz)
- D vitamini ortiqcha qabul qilinishi

7. Atrof-muhit va iqlim omillari

- Issiq iqlim (ko'p terlash → suyuqlik yo'qotilishi)
- Og'ir jismoniy mehnat

8. Dori vositalari

- Diuretiklar
- Sulfanilamidlar
- Kortikosteroidlar

9. Turmush tarzi omillari

- Kamharakatlik
- Ortiqcha vazn (semizlik)

Buyrakda tosh bo'lganda o'tkaziladigan tekshiruvlar

Yuqorida keltirilgan shikoyatlar yuzaga kelganda, agar zarur bo'lsa, qo'shimcha tekshiruvlarni belgilaydigan va keyingi davolanish to'g'risida qaror qabul qiladigan urolog-shifokorga murojaat qilish kerak.

Asosiy tekshiruv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Anamnezni yig'ish, bemorni tekshirish;
- Qon va siydikni umumiy klinik tahlil qilish;
- Siydik chiqarish tizimining ultratovush tekshiruvi. Ushbu noinvaziv, xavfsiz va og'riqsiz tekshirish usuli davolash davomida dinamik nazorat qilish uchun bir necha marta ishlatilishi mumkin;

- Ko'zdan kechirishli va ekskretor urografiya.

Qo'shimcha tekshiruvlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Multispiral kompyuter tomografiyasi: bu toshni ko'rish, uning zichligi, hajmini hisoblash, siydik tizimining arxitektonikasi, atrofdagi to'qimalarning holatini ko'rish imkonini beradi. Agar kerak bo'lsa, 3D-rekonstruktsiya amalga oshirish mumkin.



- Buyraklar funksiyasini va uning buzilish darajasini o'rganishga imkon beruvchi dinamik va statik nefrostsintigrafiya.

- Antibiotiklarga sezuvchanlik bilan siydik ekish siydik yo'lidagi infektsiyani, yallig'lanish darajasini aniqlashi mumkin.

Buyrakda toshni davolash

Ko'rik natijalarini olgandan so'ng, urolog muayyan klinik holat uchun davolash taktikasini aniqlaydi. Bugungi kunda urologlar arsenalida turli xil davolash usullari mavjud, ular orasida:

- Toshning mustaqil chiqib ketishiga yo'naltirilgan dori-darmonlar;
- Toshni eritishga qaratilgan medikamentoz davolash;
- Ochiq jarrohlik aralashuvlar;
- DistantSION zarb-to'lqinli litotripsiya;
- Endoskopik kontakt litotripsiya;
- Teri orqali nefrolitotripsiya;
- Endoskopik jarrohlik aralashuvlar.

Yaqin vaqtgacha siydik-tosh kasalligini davolashda ochiq jarrohlik muolajalari yetakchi usul hisoblangan, ammo tibbiy asbob-uskunalarining rivojlanishi sababli ular ikkinchi darajali bo'lib qoldi va hozirda faqat qat'iy ko'rsatmalar mavjud bo'lganda qo'llaniladi. DistantSION zarb-to'lqinli litotripsiya, endoskopik usullar (kontakt litotripsiya), teri orqali nefrolitotripsiya kabi minimal invaziv usullarga ko'proq ahamiyat berilmoqda.

Siydik-tosh kasalligini davolash uchun «oltin standart» distantSION zarb-to'lqini litotripsiya bo'lib, u har qanday lokalizatsiyali siydik tizimidagi toshlarning 90 foizini olib tashlashga imkon beradi. DistantSION zarb-to'lqinli litotripsiyani amalga oshirishda zarbalar to'lqini to'qimalar orqali o'tib va ularni shikastlamasdan toshni kichik fragmentlargacha parchalaydi va ular keyinchalik asta-sekin siydik bilan biega chiqib keta boshlaydi. Barcha davolash usullari bir-birini to'ldiradi va har bir bemor uchun toshning muayyan lokalizatsiyasi, kattaligi, hajmi, zichligi,



siydik tizimining ma'lum anatomiyasidan kelib chiqib individual davolash usullari tanlanadi.

Tibbiy yordam ko'rsatish usulini tanlash (kuzatuv, konservativ davo, jarrohlik aralashuvi) barcha turdagi siydik-tosh kasalligini diagnostika qilish va davolash uchun zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan malakali urologlar tomonidan hal qilinishi kerak.

Xulosa. Buyrak tosh kasalligi ko'p omilli patologiya bo'lib, uning rivojlanishida metabolik buzilishlar, noto'g'ri ovqatlanish, suyuqlik yetishmovchiligi, siydik yo'llari infeksiyalari, irsiy moyillik hamda atrof-muhit omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarning o'zaro ta'siri natijasida siydik tarkibida tosh hosil qiluvchi moddalarning ko'payishi va kristallanish jarayonlari kuchayadi. Kasallikni samarali oldini olish uchun xavf omillarini erta aniqlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ratsional ovqatlanish hamda yetarli miqdorda suyuqlik iste'mol qilish muhim hisoblanadi. Shuningdek, buyrak tosh kasalligini profilaktika qilishda tibbiy ko'riklar va individual yondashuv asosida davolash choralarini qo'llash kasallikning qaytalanish xavfini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov. Odam va uning salomatligi. Toshkent. 2010.
2. Sh.M. Qirg'izov, A.S. G'ofurov. Buyrak-tosh kasalligida magnitlangan suvdan foydalanish. International scientific-online conference on Innovation in the modern education system Part 2. 2021. 175-177 b.
3. I.R. Asqarov. Sirli tabobat. Toshkent. 2021. 93-99 b.
4. Al-Tawehed AR, Al-Awadi KA, Kehinde EO, Abdul-Halim H, Hanafi AM, Ali Y. Treatment of calculi in kidneys with congenital anomalies: an assessment of the efficacy of lithotripsy. Urol Res. 2006;34(5):291-298.
5. Ferraro PM, Taylor EN, Eisner BH, et al. History of kidney stones and the risk of coronary heart disease. JAMA. 2013;310(4):408-415.